# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№10



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 384 sahifa.*
*2025-yil, 10-oktyabr*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori

**Board of Experts:**

**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA....13
**Muxiddin Kalonov**

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI....19
**Quliyev Begimqul Melikovich**

SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI....24
**Sabirova Oysuluv Shonazarovna**

KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI....30
**Musayeva Shoira Azimovna**

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI....35
**Alabayev Sobitxon**

MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI....40
**Zakirov Ansabxon Akaidinovich**

ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ....48
**Саидахмедова Аида Мирзаевна**

KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH....55
**Mirzayev Ozod Furkatovich**

AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL....59
**Qodirov Farrux Ergash o'g'li**

BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK....64
**Yuldashev Adhamjon Axadjonovich**

SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR....69
**Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li**

МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА....73
**Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович**

ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО....78
**Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI....84
**Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li**

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH....90
**Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li**

O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR....96
**Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li**

YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR....102
**Allayarov Suxrob Rustamovich**

O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI....107
**Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

HUDUDIY IJTIMOIY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURSLARI OMILLARI ........ 114
**Durumov Temur G'olibovich**

TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 121
**Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li**

РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА ........ 134
**Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна**

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI ........ 139
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 145
**Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR ........ 151
**Shaxinabonu Choriyeva**

AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI ........ 157
**Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna**

"YASHIL" ENERGIYA ISHLAB CHIQARUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 163
**Toshtemirov To'lqin Toirjonovich**

DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI ........ 166
**O. Nurmuradov**

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI ........ 171
**Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li**

СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 176
**Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович**

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........ 183
**Zarikeyeva Miyasar Maratovna**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI ........ 187
**Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi**

O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI ........ 192
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 196
**Xuramov Zafar Rajabaliyevich**

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 201
**Zakirov Abduazim Abdurashidovich**

НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 206
**Махкамов Ибраим**

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI ........ 213
**Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li**

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI ........ 217
**Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich**

DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI ........ 221
**Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li**

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA YERISHISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA) ........ 227
**Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich**

НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ........ 233
**Ягудин Дмитрий Рустамович**

RESURSLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO‘LLASH MASALALARI ........ 240
**Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO‘LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI ........ 246
**Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich**

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA “YASHIL” MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI ........ 250
**Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna**

INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI........ 255
**Muzaffar Raximov**

UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI........ 259
**Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li**

INTERNATIONAL ORGANIZATIONS’ APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL ........ 268
**Akhmadaliyeva Nikholakhon**

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI........ 273
**Vohobov Hikmatillo Ma’mirjon o‘g‘li**

ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА........ 280
**Тохирова Гуллола Миркамоловна**

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA’LIMI BITIRUVCHILARINING O‘RNI ........ 287
**Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich**

DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM ........ 292
**Barno Erkayeva**

AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI........ 296
**Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna**

DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI........ 301
**B.Sh.Mirzayev**

YOSHLAR BANDLIGIDA KO‘NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI........ 307
**Raxmatxo‘jayev Axrorxo‘ja Akmal o‘g‘li**

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH........ 311
**Oqboyev Alisher Rasuljanovich**

РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА........ 317
**Рахимходжаева Нодира Саидахраловна**

QISHLOQ XO‘JALIGI TA’MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH........ 323
**Ermonov Farrux**

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLIYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA’LIM YO‘NALISHLARINI YO‘LGA QO‘YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI........ 329
**Turg‘unov Bahtiyor Nuriddinovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI ..... 334
**Amanbaev Amanali Orazbaevich**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI..... 338
**Z. Teshayev**

O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH..... 343
**Suyunov Asror Baxtiyorovich**

KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI..... 349
**Ismailov Allayor Rashidovich**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI..... 355
**Yusupov Farxod Adamboyevich**

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI ..... 359
**Abdullaeva Nilufar Javdat qizi**

MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) ..... 363
**Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li**

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR ..... 369
**Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich**

RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RISIDA..... 374
**Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich**

O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI ..... 379
**Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi**

# O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA “XIZMATLAR IPOTEKASI” MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI



**Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi tayanch doktoranti
ORCID ID: 0000 0002 9229 1604
E-mail: uskenbaeva_d@nuu.uz

Annotatsiya: Maqolada “xizmatlar ipotekasi”ning iqtisodiyotdagi yangi moliyaviy instrument sifatidagi ahamiyati, uning kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishdagi roli hamda xalqaro amaliyotdagi o‘xshash mexanizmlar tahlil etilgan. Shuningdek, xizmatlar ipotekasi orqali tadbirkorlik subyektlarini asosiy vositalar bilan ta’minlash, ularning iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini xorij tajribalari bilan taqqoslash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar ipotekasi, kichik biznes, infratuzilma, pul-kredit siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, davlat dasturlari, inklyuziv o‘sish, davlat sherikchiligi.

Abstract: The article analyzes the importance of "service mortgage" as a new financial instrument in the economy, its role in financing small and medium-sized businesses, and similar mechanisms in international practice. It also examines the issues of providing business entities with basic resources through service mortgages, and comparing their contribution to economic growth with foreign experience.

Key words: service mortgage, small business, infrastructure, monetary policy, macroeconomic stability, government programs, inclusive growth, public partnership.

Аннотация: В статье анализируется значение «сервисной ипотеки» как нового финансового инструмента в экономике, её роль в финансировании малого и среднего бизнеса, а также аналогичные механизмы в международной практике. Также рассматриваются вопросы обеспечения субъектов предпринимательства основными ресурсами посредством сервисной ипотеки и сравнивается её вклад в экономический рост с зарубежным опытом.

Ключевые слова: сервисная ипотека, малый бизнес, инфраструктура, денежно-кредитная политика, макроэкономическая стабильность, государственные программы, инклюзивный рост, государственное партнёрство.

## KIRISH

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “biznesni rivojlantirishning asosiy omili — bu unga amaliy yordam ko‘rsatish, zarur binolar, uskunalar va infratuzilma bilan ta’minlashdir”. Shu munosabat bilan 2024-yildan “xizmatlar ipotekasi” mexanizmi faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizim tadbirkorlik subyektlariga davlat jamg‘armasi orqali 7 yilgacha muddatga ko‘chmas mulk yoki uskunalarni sotib olish hamda keyinchalik bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini yaratadi.

Mexanizmning asosiy maqsadi kichik va o‘rta biznes subyektlariga bino va inshootlarga egalik qilish imkonini berib, ularning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini kengaytirishdir. Bu orqali hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda milliy mahsulot hajmini oshirish imkoniyati

paydo boʻladi. Bundan tashqari, xizmatlar ipotekasi orqali tadbirkorlikni moliyalashtirish klassik kreditlashdan farqli oʻlaroq, mulkka egalikni ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiradi. Shu bilan birga, mazkur instrument milliy iqtisodiyotda innovatsion moliyalashtirish tizimini kengaytirishning muhim bosqichi sifatida e'tirof etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij tajribasida kichik biznesni qoʻllab-quvvatlashning oʻxshash mexanizmlari keng qoʻllaniladi. AQSHda Small Business Administration (SBA) dasturi orqali kreditlarning 40 foizi davlat tomonidan kafolatlanadi, 50 foizi tijorat banklari hissasiga, 10 foizi esa tadbirkorning oʻz mablagʻiga toʻgʻri keladi. Ushbu tizim natijasida 32 milliondan ortiq kichik biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 44 foizini ta'minlamoqda (Friedman, 2019)[1].

Janubiy Koreyada KODIT va KOTEC tashkilotlari kichik biznes loyihalari uchun davlat kafolati tizimini joriy etgan (Kim, 2021)[2]. Hozirda ushbu tizim orqali 7 millionga yaqin kichik korxona faoliyat yuritmoqda. Biroq haddan tashqari davlat yordami "zombi korxonalar"ning paydo boʻlishiga olib kelgan, shu sababli Koreya hozirda venchur moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich oʻtmoqda.

Rossiyada "Natsionalnыy proyekt MSP" dasturi kichik biznesni grant va imtiyozli kreditlar orqali qoʻllab-quvvatlab, ish oʻrinlari yaratishda muhim rol oʻynagan. Ammo 2022-yildan keyin inflyatsiyaning oshishi kredit stavkalarining koʻtarilishiga sabab boʻlgan (Glazyev, 2023)[3].

Mahalliy tadqiqotchilardan Arifov A. (2020)[4] makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat moliyaviy institutlari ishtirokini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Xodiyev B. (2021)[5] xizmatlar sohasida infratuzilmani davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish muhimligini qayd etadi. Gulyamov S. (2022)[6] esa xizmatlar ipotekasi kabi yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish kichik biznes uchun strategik ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida statistik, taqqoslash, guruhlash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, abstrakt-mantiqiy tahlil, analitik tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi. Ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, iqtisodiy oʻsish tushunchasini yanada kengroq va aniqroq yoritishga harakat qilindi. Natijada muammolar tezkorlik bilan aniqlanib, ularga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi hamda mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimizning YAIM hajmi, asosiy stavka va inflyatsiya darajasi tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hamkorlik va institutsional salohiyatni oshirish borasida davlat, bank, moliya tashkilotlari hamda tadbirkorlar oʻrtasida samarali sheriklik tizimini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda respublikada biznesni qoʻllab-quvvatlashning yangi instrumentlari — jumladan, xizmatlar ipotekasi va ustav kapitaliga ulush kiritish orqali moliyalashtirish mexanizmlari "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilmoqda.

Xizmatlar ipotekasi doirasida kompaniya tadbirkorlik subyektlari uchun 10 milliard soʻmgacha qiymatdagi koʻchmas mulk va uskunalarni xarid qilib, 7 yilgacha muddatga 18 foiz yillik stavkada qaytarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu mexanizm tadbirkorlar uchun an'anaviy bank kreditlariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega: foiz stavkasi past, rasmiylashtirish jarayoni tez va byurokratik toʻsiqlarsiz, qoʻshimcha garov talab etilmaydi hamda davlat kompaniyasi tadbirkor bilan sheriklik tamoyiliga asoslangan holda ish olib boradi.

"Xizmatlar ipotekasi" — bu Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi tomonidan tadbirkor topshirigʻiga asosan bank yoki boshqa moliya tashkilotlari orqali jamgʻarma mablagʻlari hisobidan bino-inshoot, asbob-uskuna va boshqa infratuzilma obyektlarini xarid qilish hamda ularni egalik huquqi bilan 7 yil muddatga tadbirkorga berishdan iborat moliyaviy mexanizmdir. Ushbu vosita tadbirkorga oʻz asosiy vositalar bazasini yoki zarur binolarini oʻz mablagʻini sarflamasdan, mulkni qurmasdan olish (yoki ijarada foydalanish) imkonini beradi.

Xizmatlar ipotekasi asosan sanoat, turizm, savdo, umumiy ovqatlanish, ta'lim va boshqa xizmat koʻrsatish yoʻnalishlaridagi loyihalar uchun moʻljallangan. Jumladan, har bir hududda kamida uchta yangi sanoat zonasini tashkil etish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va yuqori malakali xizmat koʻrsatish tizimini kengaytirish masalalari ustuvor yoʻnalish sifatida belgilanmoqda.

---

1 Small Business Administration (SBA). Annual Performance Report 2023. – Washington DC, 2023.
2 Kim S. Korea's Credit Guarantee System and SME Development. – Seoul: KODIT Publications, 2021.
3 Glazyev S. Rossiyskaya ekonomika i finansovыe instrumentы podderjki MSP. – Moskva: Finansы i kredit, 2023.
4 Arifov A. Makroiqtisodiy barqarorlik va pul-kredit siyosati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5 Xodiyev B. Iqtisodiy oʻsish nazariyalari va amaliyoti. – Toshkent: Moliya, 2021.
6 Gulyamov S. Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlar va monetar siyosat. – Toshkent: TFI, 2022.

2024-yil davomida respublika miqyosida ochiq tanlovlar o‘tkazilib, o‘rta biznes subyektlarining 10 ta loyihasi xizmatlar ipotekasi instrumenti orqali moliyalashtirildi. Ularning umumiy qiymati 57,9 milliard so‘mni tashkil etgani ma’lum qilindi (1-rasm).




1-rasm. O‘zbekistonda 2024-yilda amalga oshirilgan xizmatlar ipotekasi loyihalari[7]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, xizmatlar ipotekasi dasturi doirasida moliyalashtirilgan loyihalar hozircha asosan sanoat sohalariga to‘g‘ri keladi. Ular orasida gilam va to‘qimachilik mahsulotlari, import o‘rnini bosuvchi gigiyena vositalari, qurilish materiallari hamda tuxum ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar mavjud. Kelgusi prognozlarga ko‘ra, mazkur loyihalar ishlab chiqarish sohasida 872 ta yangi ish o‘rni yaratilishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, dunyo miqyosida xizmatlar ipotekasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshash moliyalashtirish sxemalari juda kam uchraydi. Biroq turli mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning o‘xshash mexanizmlari amalda qo‘llanilib kelmoqda. Ushbu mexanizmlarni AQSH, Janubiy Koreya va Rossiya tajribalari misolida tahlil qilish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Xizmatlar ipotekasi sohasida xorij tajribalari tavsifi[8]

| Davlatlar | Yetakchi tashkilotlar | Talablar va imtiyozlar | Natijalar |
|---|---|---|---|
| AQSH | SBA (Small Business Administration | Kreditning 40% SBA tuzilmasi, 50% tijorat banki, 10% tadbirkor qoplaydi | 32 mlndan ziyod kichik biznes subyektlari faoliyat ko‘rsatib, YAIM 44%ni ta’minlaydi va xususiy sektordagi ishchi kuchining 47%ga ega. |
| Janubiy Koreya | KODIT (Korea Credit Guarantee Fund); KOTEC (Korea Technology Finance Corporation) | Xukumat 1960-yildan kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishga alohida e’tibor; kreditlar uchun kafolatlar va sug‘urtalash | 30 mln kishi mehnat qiluvchi, 7 mlnga yaqin kichik korxonalar (Koreya yalpi bandligining 82%ni tashkil qiladi); ayrim davlat yordami olgan korxonalar samarasiz faoliyat olib borgani kuzatilgan. |
| Rossiya | Natsionalnqy proyekt MSP | 2022-yilgi Ukraina mojarosiga qadar katta imtiyozli kreditlar, grantlar va o‘quv dasturlari. Ammo xozirda faqat ishlab chiqarish, logistika, turizm, fan va IT sohalari imtiyozli moliyalashtirilmoqda | 6,5 mlnga yaqin kichik subyekt va 29 mln o‘zini band qilganlar KO‘B tizimida bor |

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash ko‘plab xorijiy mamlakatlarning ustuvor vazifalari qatoridan o‘rin olgan. AQSH tajribasi kichik biznesga kredit kafolatlarini berish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini ko‘rsatsa, Janubiy Koreya tajribasida haddan tashqari davlat yordami olgan kichik korxonalar vaqt o‘tishi bilan samarasiz “zombi korxonalarga” aylangani kuzatilgan. Shu

7 https://biznesombudsman.uz/ru/news/1133 - ma’lumotlari asosida
8 https://www/wikipedia.com/ - sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

sababli, so'nggi yillarda Koreyada kichik biznesni bozor tamoyillari asosida venchur moliyalashtirish tizimiga o'tkazish dasturlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Rossiya tajribasida esa 2024-yilda 70 mingga yaqin kichik korxonalar o'z kreditlarini qayta tuzish bo'yicha murojaat qilgan, chunki mamlakat Markaziy banki yuqori inflyatsiya tufayli kredit stavkalarini baland darajada ushlab turibdi.

Demak, xulosa shuki, kichik biznesni rivojlantirishda faqat budjet mablag'larini ajratish kifoya emas. Barqaror makroiqtisodiy muhit, past inflyatsiya va qulay moliyaviy sharoitlar ham kichik biznes taraqqiyoti uchun muhim omillardir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xizmatlar ipotekasi modeli to'g'ri dizaynda amalga oshirilsa, u inklyuziv iqtisodiy o'sishga sezilarli turtki berishi mumkin.

Biroq, dasturning muvaffaqiyati uchun loyihalar tanlov asosida eng munosib tadbirkorlarga berilishi, ularning faoliyati muntazam monitoring qilinishi va bozor intizomiga qat'iy rioya etilishi zarur. Davlat yordami ma'lum muddatdan so'ng kamaytirilib, biznesning mustaqil bozor mexanizmlari asosida faoliyat yuritishga o'tishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Aks holda, doimiy subsidiya va suyanuvchanlik xususiy sektorning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Zero, har qanday imtiyoz yoki subsidiya iqtisodiyotni qayta tashkil etish uchun vaqtinchalik vositadir, uzoq muddatda esa samarali ishlaydigan bozor muhitiga ehtiyoj saqlanib qoladi.

O'zbekistonda xizmatlar ipotekasi mexanizmining istiqboli katta. Avvalo, bu tizim davlat dasturlari bilan belgilangan yirik maqsadlarga muvofiqdir. Xizmatlar ipotekasi tadbirkorlarga yangi loyihalarni boshlashni osonlashtiradi hamda bu jarayon iqtisodiy o'sishni tezlashtirishda qo'shimcha turtki bo'la oladi. Shu bilan birga, bunday loyihalar tanlov asosida ochiq-oshkora tashkil qilinishi, ularning samaradorligi muntazam monitoring qilinishi lozim. Infratuzilmani loyihalash va qurilishning barcha bosqichlarida shaffoflik hamda raqobatni ta'minlash zarur. Natijada yaratiladigan binolar zamonaviy texnologiyalar asosida, yuqori mehnat unumdorligi va resurs tejamkorlikni ko'zda tutgan holda qurilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, moliyaviy barqarorligi tekshirilgan, o'z mablag'i yetarli bo'lmagan, ammo iqtisodiy jihatdan asosli loyihaga ega murojaatchilarga ustuvorlik berilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini pul-kredit instrumentlari asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini ularning bino-inshoot hamda texnika-texnologiyalarga egalik qilishida davlat tomonidan "xizmatlar ipotekasi" xizmati orqali takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, xizmatlar va sanoat sohalarida kichik va o'rta biznesning ulushi ortadi. Asosiy fondlarga egalik qilish osonlashgani sababli ko'plab tadbirkorlar yangi loyihalarni yo'lga qo'yadi, mavjud quvvatlarini kengaytiradi. Prezident matbuot xizmati xabariga ko'ra, keyingi yillarda "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" orqali 10 milliard AQSH dollarigacha imtiyozli kredit resurslarini yo'naltirish hamda "tadbirkorlik chempionlari" sifatida kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish rejalashtirilgan. Jahon banki tahlillariga ko'ra, xizmatlar sohasini liberallashtirish va xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish O'zbekiston YAIMni uzoq muddatda 17 foizgacha oshirish salohiyatiga ega. Xizmatlar ipotekasi esa bu maqsadga erishishda sarmoya jalb qilish va yangi xizmat turlarini rivojlantirish orqali xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xizmatlar ipotekasi orqali davlat tadbirkorlarga mulkka egalik qilishda ko'maklashib, ularning resurslarini boshqa ehtiyojlarga yo'naltirish uchun sharoit yaratadi. Masalan, bino sotib olish uchun kerakli mablag'ni 7 yil davomida bo'lib to'lash imkoniyati tadbirkorning aylanma kapitalini qisqarishdan himoya qiladi hamda biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, mazkur mexanizm an'anaviy bank kreditlaridan farqli ravishda, tadbirkorlik subyektlari uchun garov va ta'minot talablari yukini kamaytiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondagi kichik korxonalarning ko'pchiligi garov ta'minoti yetishmasligi sabab kredit olishda qiynalmoqda. Xizmatlar ipotekasi esa xarid qilinayotgan aktivning o'zini garov sifatida belgilab, ushbu muammoni samarali hal etadi.

To'rtinchidan, bank tizimida kichik biznesni kreditlash ulushi va sifati yaxshilanadi. Xizmatlar ipotekasi doirasida banklar uchun riskning bir qismi davlat tomonidan sug'urtalanganligi sababli kredit ajratish qiziqishi oshadi.

Umuman olganda, xizmatlar ipotekasi O'zbekiston uchun yangi va istiqbolli moliyaviy instrument bo'lib, 2025–2030-yillarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy faollikni oshirish va aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishga xizmat qiladi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilanganidek, mamlakatning yuqori daromadli iqtisodiyotga aylanishida kichik biznes va xizmatlar sohasi yangi drayver sifatida yetakchi o'rin tutadi, xizmatlar ipotekasi esa bu yo'ldagi eng muhim ilg'or mexanizmlardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: Ўзбекистон, 2021. — 464 b.
2. Arifov A. Makroiqtisodiy barqarorlik va pul-kredit siyosati. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

3. Xodiev B. Iqtisodiy oʻsish nazariyalari va amaliyoti. — Toshkent: Moliya, 2021.
4. Gulyamov S. Oʻzbekistonda iqtisodiy islohotlar va monetar siyosat. — Toshkent: TFI, 2022.
5. Small Business Administration (SBA). Annual Performance Report 2023. — Washington DC, 2023.
6. Kim S. Korea's Credit Guarantee System and SME Development. — Seoul: KODIT Publications, 2021.
7. Glazyev S. Российская экономика и финансовые инструменты поддержки МСП. — Moskva: Finansy i kredit, 2023.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-yanvardagi qarori. — www.lex.uz
9. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi rasmiy sayti — https://mineconomy.uz
10. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti — https://cbu.uz

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz